

2019 -2020 yillar I -yarim yillik yakunlariga ko'ra Avtomobil yo'llari qo'mitasining asosiy faoliyat ko'rsatkichlari to'g'risida taxliliy MA'LUMOT


T/r	Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019 y I-yarim yillik amalda	2020 y I-yarim yillik amalda	O'tgan yilga nisbatan(%)
	Bajarilgan ish xajmi, jami	mlrd.so'm	1693,3	2041,2	120,5
	shu jumladan:				
1	Investitsiya dasturi bo'yicha	mlrd.so'm	500,9	517,7	103,3
		km	58,6	59,3	101,2
2	To'la ta'mirlash ishlari	mlrd.so'm	89,5	90,2	100,7
		km	45,5	48,0	105,5
3	Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash	mlrd.so'm	326,8	626,7	191,8
		km	2277,0	1268,2	56
4	Umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari	mlrd.so'm	776,1	806,6	104
		km	1144	1368	119,5
5	Yangi ishjoylarini yaratish	kishi	280	11774	42 barovar o'sish

Qo'mita tizimidagi korxonalar va tashkilotlar 2020 yil I-yarim yillikda Investitsiya dasturiga asosan

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **517,7 mlrd. so'mlik** qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2019 yilning xuddi shu davriga nisbatan **103, 3 foiz**ni tashkil etadi.

Bundan tashqari to'la ta'mirlash dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida **90, 2 mlrd.so'mlik** ta'mir ishlari bajarildi. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilga nisbatan **100, 7 foiz**ga teng.


2019-2020 yillar I-yarim yillik yakuniga ko'ra asosiy faoliyat ko'rsatgichlarining taqqoslama diagrammasi



2020 yil I-yarim yillik yakuni bo'yicha Respublikamizdagi **1268,2 km** mintaqaviy avtomobil yo'llari ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida **56,0 km**, Andijonda **106,2 km**,

Buxoroda **92,2km**, Jizzaxda **71,4 km**, Qashqadaryoda **168,7 km**, Navoiyda **60,8 km**, Namanganda **97,3 km**, Samarqandda **124,5 km**, Surxandaryoda **92,0 km**, Sirdaryoda **74,1 km**, Toshkent viloyatida **92,5 km**, Farg'onada **69,9 km**, Xorazmda **93,4 km** hamda Toshkent shahrida **69,2 km** mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Mintaqaviy ichki yo'llar ta'miri hajmi esa o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan **56 foizni** tashkil etadi.

2020 yil I-yarim yillik yakuniga ko'ra mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlash (xududlar kesimidagi diagramma)



2020 yil I-yarim yillikda Respublika bo'yicha avtomobil yo'llarida **42695 km** uzunlikdagi yo'llardan **1368,0 kmdan iborat qismi**da joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2019 yil I-yarim yillikka qaraganda **119,5 foiz**ni tashkil etadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2020 yil I-yarim yilligida **11774 ta** yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkich esa 2019 yilining mos ravishdagi tegishli davriga qaraganda **42 barovar** oshgan.

Xulosa qilib aytganda, Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2020 yil I-yarim yillikda – umumiy bajarilgan ishlar xajmi – **2041,2 mlrd. so'm**dan iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **120,5 foiz**ni tashkil etganligini ko'rsatadi.